Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT DOI 2023
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

1931 TDIU TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# «Smart-turizm: XORIJIY TAJRIBA VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI»

## Respublika ilmiy-amaliy anjumani

### TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI ILMIY MAQOLA VA TEZISLAR TO‘PLAMI

2023-yil 15-dekabr, maxsus son

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 540 sahifa, 15-dekabr, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., TDU rektori
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dotsent
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Eshov Mansur Po'latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
**Karimov Norboy G'aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javoxir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi PKQTUMOTMXHB mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To'lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**UO‘K:** 338.48 (075)
**KBK:** 65.433(011)

“Smart-turizm: XORIJIY TAJRIBA VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI". Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – T.: “YaIT” jurnali, 2023. – 540-b.

To‘plamga xorijiy va mahalliy olimlar, sohaning yetuk mutaxassislari va oliy o‘quv yurtlarida turizm sohasidagi muammolar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan doktorantlar, tadqiqotchilar, vazirlik, qo‘mita va turli mulkchilik shaklidagi korxona, tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari, magistrlarning ilmiy izlanishlarining natijalari kiritilgan.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va keltirligan huquqiy-me’yoriy hujjatlarning haqqoniyligi, tadqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

**Mas’ul muharrir:** t.f.d., prof. K.A. Sharipov

**Konferensiya tahrir hay’ati:** i.f.d., prof. M.P.Eshov, i.f.d., prof. G.Q.Abduraxmanova, i.f.d., prof. S.K.Xudoyqulov, i.f.d., prof. M.A.Yuldashev, i.f.d., prof. A.M.Abduvohidov, i.f.d., prof.M.T.Aliyeva, i.f.d., prof. A.A.Eshtayev, i.f.d., prof.A.N.Norchayev, i.f.n.,prof. S.R.Safayeva, i.f.n., dots. D.I.Abidova, i.f.n., dots. X.Ochilova,i.f.n., dots. M.Nurfayziyeva.

**Taqrizchilar:**
Sh. Ergashxodjayeva, i.f.d., prof.
U. G‘afurov, i.f.d., prof.

***Ushbu Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida o‘tkazilayotgan «Smart-turizm: XORIJIY TAJRIBA VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.***

ISBN 978-9943-6856-0-4

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

# TARIXIY SHAHARLARDA TURIZMNI RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

**Ro‘zibayeva Zulayho Baxrombek qizi**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy shaharlarda turizmni rivojlanishda raqamli texnologiyalarning o‘rni haqida izlanishlar olib borhamda O‘zbekiston hududida Smart-turizmni rivojlantirishni izchil yo‘llari ko‘rib chiqildi. Smart-turizmni rivojlantirish bevosita iqtisodiyotimizni rivojlantirishga katta ta’sir etishi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Milliy iqtisodiyot, demokratik, iqtisodiy faollik, samaradorlik, inflyatsiya, valyuta kursi, o‘sish sur'ati, sanoat mahsulotlari, narxlar indeksi, chakana savdo, tashqi savdo, korxona va tashkilotlar, kichik biznes, bozor xizmatlari, yalpi xonadon tic mahsuloti, Markaziy bank kursi, import va eksport.

Abstract: In this article, while conducting research on the role of digital technologies in the development of tourism in historical cities, consistent ways of developing Smart-tourism in the territory of Uzbekistan were considered. It was analyzed that the development of smart tourism has a direct impact on the development of our economy.

Key words: National economy, democratic, economic activity, efficiency, inflation, exchange rate, growth rate, industrial products, price index, retail trade, foreign trade, enterprises and organizations, small business, market services, gross domestic product, Central Bank rate, import and export.

Аннотация: В данной статье при проведении исследования роли цифровых технологий в развитии туризма в исторических городах были рассмотрены последовательные пути развития Smart-туризма на территории Узбекистана. Проанализировано, что развитие умного туризма оказывает прямое влияние на развитие нашей экономики.

Ключевые слова: Национальное хозяйство, демократия, экономическая активность, эффективность, инфляция, курс валют, темп роста, промышленная продукция, индекс цен, розничная торговля, внешняя торговля, предприятия и организации, малый бизнес, рыночные услуги, валовой внутренный продукт, ставка ЦБ, импорт и экспорт.

## KIRISH

Ma’lumki turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotiga eng tez daromad keltiruvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi, shu boisdan ham hozirda ko‘plab mamlakatlar milliy iqtisodiyoti tarkibida turizmdan keladigan daromadlarni oshirishga harakat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoniga binoan 2022-2026-yilgacha bo‘lgan davrda “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” nomli ustuvor yo‘nalishi 16 ta maqsadni o‘z ichiga olgan.

Shuningdek, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish – maqsadi 10 ta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi, bular quyidagilar:

Vatanimiz hududidagi o‘tmishdan sado beruvchi ko‘plab tarixiy obidalarning mahobati, o‘ziga xos me’moriy uslubi, minglab yillar silsilasidan bizgacha yetib kelayotgani butun dunyoni lol qoldirmoqda. Mamlakatimizga sayyohlarning aksariyati ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan muhtasham san’at asarlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish, ulardagi ulug‘vorlikni his qilish uchun tashrif buyurishadi.

Umuman olganda madaniy meros obyektlari, tarixiy obidalar bu faqatgina turizm obyekti emas, birinchi navbatda bu xalqimizning boyligi hisoblanadi. Ularda millatimizning buyuk tarixi, madaniyati aks etgan.

O‘zbekiston hududida ko‘plab tarixiy obidalar mavjud va qulay geografik hududda joylashgan

bo'lsa-da, turizmining rivojlanishi sekin kechmoqda. Buning bir qator sabablari mavjud eng avvalo ushbu sohaga ajratiladigan investitsiya, sayohat qilishning qulaylik darajasi, infratuzilma va kadrlar muammosi mamlakatlarda turizm rivojlanishiga u yoki bu ma'noda ta'sir o'tkazadi. Ushbu muammolarga yechim sifatida O'zbekiston hududida Smart-turizmni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti asistenti Baxrom Boxodirovich Xashimovning Academic Research in Educational Sciences jurnalidagi "Smart-turizm" haqidagi maqolasida 2017-yil 6-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Madaniyat vazirligi hamda — "Tehno Dargoh" MChJ o'rtasida uch tomonlama kelishuv memorandumi asosida, Buxoro viloyatining 50 ga yaqin (Poyi Kalon ansambili, Gavkushon madrasasi, Ko'kaldosh madrasasi, Toqi sarofon, Toqi telpakfurushon, Labi hovuz majmuasi, Nasriddin Afandi haykali, Nodir Devonbegi madrasasi, Yahudiylar Sinagogasi, Somoniylar maqbarasi, Ark qo'rg'oni va boshqa) tarixiy obyektlarida QR kod o'rnatilgani haqida ta'kidlab o'tgan.

Shuningdek, ushbu loyihaga ko'ra, viloyatning Smart-turizm viloyati sifatida xalqaro turizm bozoridagi imijni oshirish va sayyohlarga qulaylik yaratish uchun IT-texnologiyalardan faol foydalanish maqsadida «VERUM QR» qo'shma loyihasini amalga oshirishning amaliy bosqichi boshlandi. O'rnatilgan QR kod lar 12 ta tilda obyekt haqidagi ma'lumotlarni mahalliy va xorijiy sayyohlarga 3 soniyada taqdim etmoqda.[1]

I.T. Frolova esa tarixiy madaniy turizmga global miqyosda xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi omil va vosita sifatida qarab, rivojlanishi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiruvchi uchta:

1) madaniyat va madaniy merosga oid bilimlarni boyitish,
2) madaniyatni muhofaza qilish va qayta tiklash,
3) madaniyatlar muloqoti kabi yo'nalishlardan iborat deya hisoblaydi. Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda madaniy turizmning asosiy gumanitar funksiyalari, sifatida quyidagilar qayd etiladi:

- madaniy-ma'rifiy va ta'limiy;
- madaniy muhofaza va saqlash;
- aloqalar o'rnatish va tinchlikparvarlik.[2]

## TAHLIL VA NATIJALAR

Turizmni rivojlantirish darajasi – mamlakat, uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligini tavsiflovchi parametrlardan biridir.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy farqlovchi omili shundaki, axborot eng muhim boylik bo'lib, uning qiymati doimiy ravishda oshib bormoqda. Turizm sohasida yagona axborot makonini shakllantirish masalasi anchadan beri muhokama qilinib kelinmoqda. Bu borada turizm sohasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan katta ishlar qilindi. Turizm sanoati eng yangi raqamli texnologiyalarni faol joriy etishga to'liq e'tibor qaratmoqda. Faoliyatning aksariyati raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga mos ravishda, jumladan, turlarni bron qilish tizimi, elektron to'lov texnologiyalari va boshqalarni hisobga olgan holda qayta tuzildi.

Raqamli iqtisodiyotning shakllanish darajasi ko'p jihatdan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanishi va ularni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga joriy etish darajasi bilan belgilanadi. Texnologiyalarning rivojlanishi tufayli O'zbekiston Respublikasi aholisining 81 foizi, savdo korxonalarining 93 foizi, transport korxonalarining 80 foizi, davlat organlarining 95 foizi Internetdan foydalanadi.

Eng muhimi, Internet-texnologiyalar moliyaviy operatsiyalarda, davlat organlari bilan o'zaro aloqada, yetkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan aloqa qilishda qo'llaniladi. Asosan, turizm sohasidagi barcha korxonalar u yoki bu darajada axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadi. Faoliyatning barcha asosiy jarayonlari axborotni qayta ishlashga, shu jumladan turizmdagi turli bronlash tizimlariga, axborot-qidiruv tizimlariga, hamkorlar, yakuniy foydalanuvchilar bilan axborot-kommunikatsiya aloqalariga asoslanadi. Turizmda zamonaviy reklama texnologiyalarining deyarli ko'p

qismi internet texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan bo'lib, O'zbekistondagi tarixiy va turistik makonlarni hamda mehmonxonalarni izlash imkoni yaratildi. Eng ko'p tarixiy yodgorliklariga ega viloyat.

Qayd etilishicha, respublikada arxitektura yodgorliklari soni 2 264 tani tashkil etadi, shulardan eng ko'p tarixiy yodgorliklar Samarqand viloyatida joylashgan – 562 ta. Keyingi o'rinlarni Buxoro viloyati (507 ta) va Toshkent shahri (288 ta) egallagan[3].

1-jadval: Hududlar bo'yicha arxitektura yodgorliklari soni

| № | Hududlar nomi | Tarixiy obidalar soni |
|---|---|---|
| 1. | Samarqand viloyati | 562 |
| 2. | Buxoro viloyati | 507 |
| 3. | Toshkent shahri | 288 |
| 4. | Qashqadaryo viloyati | 208 |
| 5. | Farg'ona viloyati | 139 |
| 6. | Xorazm viloyati | 136 |
| 7. | Jizzax viloyati | 100 |
| 8. | Namangan viloyati | 98 |
| 9. | Andijon viloyati | 74 |
| 10. | Navoiy viloyati | 70 |
| 11. | Surxondaryo viloyati | 36 |
| 12. | Qoraqalpog'iston R. | 24 |
| 13. | Sirdaryo viloyati | 15 |
| 14. | Toshkent viloyati | 7 |

jadvaldan ma'lumki, yurtimiz katta turistik imkoniyatlarga ega. Mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun jahonda ham turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Ma'lum hududda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishda shu joyning tarixiymadaniy obyektlarи asosiy o'rinni egallaydi. Lekin ulardan alohida muhim ahamiyatga egalari xalqaro miqyosdagi obyektlar va yodgorliklar ro'yxatiga kiritiladi. Bunday ro'yxatni YUNESKO har yili aniqlab boradi.

Keyingi yillarda O'zbekiston hududidagi noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, tarixiy shaharlarning bosh loyihasi va menejment rejasini YUNESKO xalqaro standartlari hamda talablariga muvofiq ishlab chiqishda mazkur tuzilmaning xalqaro ekspertlari ham keng jalb etilmoqda. YUNESKO bilan yaqin hamkorlikda moddiy va nomoddiy meros obyektlarini asrashga doir turli xalqaro anjumanlar tashkil qilinmoqda.

Mazkur chora-tadbirlar madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishni oqilona tashkil etish va boshqarishni hamda shu sohadagi dolzarb muammolarni ko'rib chiqish, xalqaro tajribani o'rganish, tarixiy-madaniy meros saqlanishini ta'minlashga doir milliy tizimni takomillashtirish, bu boradagi davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini bermoqda. Iqtisodiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha tarixiy-madaniy turizmning moddiy merosini boshqarish uchun obyektlar soni, holati, shuningdek, asliga mos obyektlar ya'ni restavratsiya va tamirlash jarayonida o'zgartirilmagan asli saqlanib qolingan ulushi va obyektlarning har xilligini hisobga olish zarur.

Obyektlar har xil hajmlarga ega bo'lgani bois, ularni shu belgi bo'yicha tasniflash zarur.

Quyidagi toifalarni ajratish tavsiya qilinadi:

- me'moriy majmualar;
- alohida turgan me'morchilik obyektlari;
- kichik me'moriy shakllar;
- turmush, xo'jalik va ijtimoiy hayot obyektlari.
- turistik biznes korxonalari o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish ko'rsatkichlari. Ushbu ko'rsatkichlar turistik xizmatlar ko'rsatishga jalb qilingan tashkilotlar o'rtasidagi gorizontal aloqalarning

rivojlanganlik darajasini tavsiflaydi.

## MUHOKAMA

Raqamli iqtisodiyot turizm korxonalarining potentsial yangi shakllarini yaratish imkoniyatini yaratadi. Kadrlar infratuzilmasi sohasida ham jiddiy o'zgarishlar bo'ladi. Ijtimoiy hayotimiz va sayyohlik faoliyatimiz tobora texnologik tus olmoqda, jahon turizmi sohasida yangi yagona axborot makonini shakllantirmoqda, axborot bilan ta'minlash va turizmni boshqarish tizimi ishlab chiqilmoqda.

Booking.ru tadqiqotiga asoslanib, dunyo aholisi sun'iy intellekt, aqlli texnologiyalarga qiziqish bildirmoqda. Bugungi kunda chat-botlar jonli muloqotni maslahatchi bilan almashtirishi mumkin, chunki ular foydalanuvchilarning turli savollariga javob berishga qodir, masalan, Kayak – chatbot aviachiptalarni xarid qilishdan foydalanuvchining mavjud budjetini hisobga olgan holda Kerakli joylarga sayohat qilish uchun tavsiyalar va sayohat bo'yicha maslahatlar beradi. Biroq, mobil qurilmalar va mobil ilovalardan foydalanish sayyohlik korxonalarining ishini sezilarli darajada soddalashtiradi, chunki mijozlarga xizmat ko'rsatish sohasida shaxsiylashtirish tashkilotlarga mijozlar xarajatlari tarkibi, ularning afzalliklari haqida kerakli ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi. va qiziqishlar, shuningdek, turli marketing tadqiqotlarini o'tkazish imkonini beruvchi boshqa foydali ma'lumotlar beradi, natijada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanadi.

Turizmni raqamlashtirish turli xil ko'rinishlarga ega bo'lmoqda, ular orasida turoperatorlar tomonidan shakllantirilgan tayyor turlarni online xarid qilish hamda turoperatorlar va turistlar uchun mo'ljallangan mobil ilovalar yoki kompyuter dasturlari tizimlari orqali ishlab chiqilgan individual turlar kiradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga jadal kirib bormoqda. o'z navbatida, bunday taraqqiyot yo'liga o'z vaqtida tushgan davlatlar muvaffaqiyatga erishmoqda, eskicha ishlayotgan davlatlar esa taraqqiyotdan orqada qolmoqda. Avvalo, shuni aytish joizki, mamlakatimizda mustaqillik yillarida turizmning bozor munosabatlariga asoslangan yangi huquqiy va iqtisodiy asoslari yaratildi.

Zamonaviy infratuzilma obyektlari barpo etilib, turizmning jahon andozalari darajasidagi yangi yo'nalishlari joriy qilindi. Mavjud tarixiy-madaniy yodgorliklar ta'mirlanishi barobarida, ular keng ko'lamda targ'ib etildi.

Bu kabi tizimli chora-tadbirlar kutilgan samarani berib, yurtimizning sayyohlik salohiyati tobora oshmoqda. Bunga yaqinda Buyuk Britaniyaning dunyoda mashhur "Financial Times" gazetasida chop etilgan maqola misol bo'la oladi. Gap shundaki, unda 2017-yilda jahon bo'ylab sayohatga chiqish istagidagilar uchun eng qiziqarli yo'nalishlar ro'yxati e'lon qilindi. Gazetada ta'kidlangan to'qqizta davlat orasida O'zbekiston jahondagi eng diqqatga sazovor sayyohlik yo'nalishlari reytingida ikkinchi o'rinda qayd etildi. Bu bejiz emas, albatta. Negaki, O'zbekiston sayyohlik ko'lami va tarixiy qadamjolari ko'pligi bo'yicha dunyodagi yetakchi davlatlar sirasiga kiradi (1-расм).




Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlarida keltirilishicha, ayni paytda turizmning mamlakat yalpi

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

ichki mahsulotidagi ulushi juda past — atigi 2 foiz atrofida. Turizm faoliyatini amalga oshirgan firma va tashkilotlarning soni esa qariyb 400 ta bo‘lib, ularning asosiy qismi Toshkent shahri (73,4 foiz), Samarqand (13,1 foiz), Buxoro (4,5 foiz) va Xorazm (1 foiz) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Boshqacha aytganda, O‘zbekistondagi sayyohlik xizmatlari ko‘rsatishga ixtisoslashtirilgan firma va tashkilotlarning 92 foizi, sayyohlarning 93,1 foizi ushbu 4 ta hududga to‘g‘ri keladi. Boshqacha aytganda, O‘zbekistondagi sayyohlik xizmatlari ko‘rsatishga ixtisoslashtirilgan firma va tashkilotlarning 92 foizi, sayyohlarning 93,1 foizi ushbu 4 ta hududga to‘g‘ri keladi. Prezidentimizning 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni sohada uchrayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etib, uni izchil rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Binobarin, ushbu hujjatda turizmni mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida taraqqiy toptirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ushbu yo‘nalishdagi salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, tarmoqni boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ‘ib qilish, O‘zbekistonning ijobiy sayyohlik qiyofasini shakllantirish yo‘nalishlari belgilab berilgan. Ularning izchil ijrosi  yurtimizni jahon turizmining muhim markazlaridan biriga aylantirish imkonini yaratadi.

Qadimgi Buyuk Ipak yo‘li orqali ko‘plab mamlakatlarning turizm marshrutlari tutashgan xalqaro chorrahada joylashgan o‘lkamizda sayyohlikning barcha turini rivojlantirish mumkin.  Ular orasida ekoturizm eng istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Buning uchun g‘oyat xilma-xil hamda boy landshaft, tabiiy ekotizim va resurslar, ulkan rekreatsiya-turizm salohiyatiga egamiz. Qolaversa, yurtimizning quruq subtropik iqlimi, fasllar o‘z o‘rnida almashishi yil davomida, har mavsumga xos va mos ekologik turizm xizmatlari ko‘rsatish imkonini beradi. Vaholonki, hozirgi vaqtda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (METH)ning iqtisodiy faoliyat uchun muhim ahamiyatga ega estetik tabiiy manzaralari, madaniy-etnografik meros va qulay ekologik resurs salohiyati imkoniyatlaridan ekologik turizmni rivojlantirishda foydalanish asosiy yo‘nalishga aylangan. Shu ma’noda, respublikamizda ekoturizmga asos bo‘ladigan noyob obyektlar juda ko‘p. Masalan, 36 ta METH mavjud bo‘lib, ularning umumiy maydoni 2604,2 ming gektarni tashkil etadi. Bundan tashqari, sirli g‘orlar, g‘aroyib shaklli qoyalar, daralar, yer qatlamlari ochilib qolgan joylar, sharsharalar, shifobaxsh buloqlar, ulkan daraxtlar, nafosatli landshaftlar, muzliklar ham bor. Faqat ularni turizmda foydalanishga qaratilgan inventarizatsiya va klassifikatsiyalash, shuningdek, mavjud salohiyatni tibbiy-biologik, turizm-iqtisodiy baholashni amalga oshirish talab qilinadi, xolos.

Ta’kidlash kerakki, turizm rivojida, ayniqsa, sohaning boshqaruv tuzilmasi muhim o‘rin tutadi.

Prezidentimizning 2016-yil 2-dekabrdagi Farmoniga asosan, yangidan tashkil etilgan Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyati, eng avvalo, nazorat va ma’muriyatchilik vazifalarini amalga oshirishga emas, balki turizmda tadbirkorlik faoliyatini kuchaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ya’ni qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, sayyohlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan g‘ov va to‘siqlarni bartaraf etish, xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish, litsenziyalash, sertifikatlash hamda boshqa ruxsatnomalar berish uning zimmasiga yuklandi.

O‘z navbatida, Farmonda O‘zbekistonda yaqin vaqtda turizm sohasini o‘rta muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasi, 2017 — 2021-yillarda konsepsiyani amalga oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, turizm infratuzilmasini takomillashtirish, soha korxonalariga qo‘shimcha imtiyoz va preferentsiyalar berish bo‘yicha ham dolzarb tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Unga ko‘ra, yaqin istiqbolda xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilgan holda, respublikamizning barcha hududida turizm infratuzilmasining zamonaviy obyektlari, eng avvalo, mehmonxonalar, transport-logistika tuzilmalari, muhandislik-kommunikatsiya obyektlari bunyod etiladi. Bu jarayonda yangi obyektlarning xalqaro andozalar, turistlar talab va ehtiyojlariga to‘liq javob berishi inobatga olinadi. 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan uchinchi yo‘nalishida turizm industriyasini jadal ravnaq toptirish bo‘yicha dasturiy vazifalar belgilab berilgan.

Soha istiqboliga qaratilayotgan ana shunday jiddiy e’tibor tufayli yangi-yangi turizm markazlari

vujudga kelyapti. Toshkent viloyatini, hech ikkilanmasdan, ana shular safiga kiritish mumkin.

Gap shundaki, hudud tabiiy imkoniyatlari hamda xorij tajribasi oʻrganilgan holda, viloyatning turistik salohiyatini oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar koʻrilmoqda. Masalan, 700 dan ziyod madaniy meros obyektlari mavjudligi sayyohlikning ziyorat yoʻnalishini rivojlantirishda qoʻl kelayotgan boʻlsa, noyob tabiat obidalari, fusunkor oʻrmon va landshaftlar ekologik, purviqor togʻlar esa ekstremal sayyohlik istiqboliga keng yoʻl ochib berayapti. Bundan tashqari, etnoturizm ham izchil rivojlanayotir. Shu bois 2017 — 2021-yillar davomida mazkur sohada 200 dan ziyod loyihalar amalga oshiriladi. Ular doirasida yangi infratuzilma obyektlari, xususan, 40 ta mehmonxona qurilishi koʻzda tutilgan. Yangi mehmonxonalar sayyohlar oqimi nisbatan koʻp boʻlgan Parkent, Boʻstonliq va Zangiota tumanlari, Angren hamda Chirchiq shaharlarida bunyod qilinishi belgilangani e'tiborga molikdir. 2017-yilning oʻzida birgina Parkent tumanida 80 oʻrinli moʻjaz mehmonxona, oilaviy dam olish majmuasini foydalanishga topshirish boʻyicha ishlar jadal davom etyapti. Umuman olganda, besh yil mobaynida shu kabi maqsadlar roʻyobi uchun 400 milliard soʻmdan ortiq investitsiyalar jalb qilinib, qariyb 2 mingga yaqin ish oʻrni yaratiladi. Pirovardida viloyatda turizm xizmatlari koʻrsatish hajmi 2,5 barobar oshadi.

Harakatlar strategiyasi va boshqa tegishli hujjatlarning izchil ijrosi Oʻzbekistonni tez orada yirik hamda jozibador sayyohlik markazlaridan biriga, turizmni esa, iqtisodiyotimizning yetakchi sohasiga aylantirishga mustahkam zamin yaratishi muqarrardir. [4]

Oʻzbekistonda turizm salohiyatini oshirish boʻyicha yangi tizim joriy qilinadi. Jumladan, har bir viloyatning «tashrif qogʻozi» ishlab chiqiladi, turistik mavsum uzaytiriladi, 2023-yil mamlakatning turistik salohiyatini jahonga targʻib qilish yili boʻlib, bunga 100 mlrd soʻm ajratilishi koʻzda tutilgandi.

29-mart kuni Shavkat Mirziyoyev turizm salohiyatini rivojlantirish yuzasidan oʻtkazgan videoselektorda xorijiy sayyohlarning Oʻzbekistonda bir kun koʻproq qolishi yillik turizm eksportini 300 million dollarga oshirishi ta'kidlab oʻtildi. Jumladan, Xorazmda turistlarning qolish muddati — oʻrtacha 2 kun, sarflaydigan mablagʻi — 220 dollar. Xorijiy turistlar Buxoro, Samarqandga qaraganda Xorazmda 2,5 baravar kam. Lekin Xorazmda sayyohlarni 3−4 kun olib qolish va 400−500 dollar xarajat qilishlari uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Yoki 2022-yilda 31 ta tuman va 143 ta mahalla turizmga ixtisoslashtirib, ularda alohida soliq rejimi joriy qilindi. Bu imkoniyatdan Forish, Urgut, Xoʻjayli, Payariq, Nurota tumanlari va Angren shahri samarali foydalangan.

Temiryoʻli yoʻq, infratuzilmasi rivojlanmagan, chekka hududda joylashgan bu tumanlarda shuncha oʻzgarish boʻlib, sharoiti ancha yaxshi boʻlgan Kogon, Kitob, Xatirchi, Qiziltepa, Yangiqoʻrgʻon, Toyloq, Boysun, Parkent, Bogʻot tumanlari bu imkoniyatlardan foydalanmayotgani tanqid qilindi.

Yigʻilishda turizm salohiyatini oshirish boʻyicha yangi tizim joriy qilinishi ma'qullangandi.
Viloyatlar ularga biriktirilgan 11 ta oliygoh bilan hamkorlikda ishlab, turizm obyektlari toʻgʻrisidagi kontentni boyitishi lozim boʻladi. Ular:

- 31 ta tuman va ulardagi 143 ta turizm mahallasining tarixi, yodgorliklari va turistik obyektlari kontentini yaratadi;
- ular asosida kamida 12 ta tilda turistik paketlar ishlab chiqiladi;
- turizm, iqtisodiyot, tarix, geografiya, servis, xorijiy tillar yoʻnalishlarida oʻqiyotgan talabalarning kamida 2 oylik amaliyoti shu tumanlarda tashkil etiladi;
- turizm va servis obyektlari ishchilarini oʻqitadi.

